

6-SINFDA RAHMAT FAYZIYNING “HAZRATI INSON” ASARINI
O’QITISH METODIKASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7880863>

Sabina Jo’raqulovna Xolova

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O’zbek tili va adabiyoti universiteti
Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti 3-kurs talabasi
sabinaxolova16@gmail.com tel: 998946622612*

Annotatsiya: Maqolada 6-sinf o’quvchilarga Rahmat Fayziyning “Hazrati inson” romanini zamonaviy pedagogik metodlarni qo’llash orqali o’qitish haqida so’z yuritiladi. Bunda asarni an’anaviylikdan yiroq holda innovatsion yondashuvlar asosida o’qitish ko’zda tutiladi. Maqolada bolalarning fikrlashini o’stirishiga alohida e’tibor berilgan. Nutqini rivojlantiruvchi metodlar asosida topshiriqlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: “Klaster”, “T-jadval”, odamiylik, urush, fashist, prototip, bolalar uyi, sen yetim emassan.

Abstract: The article talks about teaching Rahmat Faizi’s novel “Hazrati inson” to 6th graders using modern pedagogical methods. It is intended to teach the work on the basis of innovative approaches, far from traditional ones. The article pays special attention to raising children’s imagination. Tasks based on speech development methods are presented.

Key words: “Cluster”, “T-table”, humanity, war, fascist, prototype, orphanagy.

Аннотация. В статье рассказывается об обучении шестиклассников роману Рахмата Файзи «Хазрати Инсон» современными педагогическими методами. Он предназначен для обучения работе на основе инновационных подходов, далеких от традиционных. в статье особое внимание уделяется воспитанию детского воображения. Представлены задания на основе методик развития речи

Ключевые слова: «Кластер», «Т-таблица», человечество, война, фашист, прототип, детский дом, ты не сирота

Bugungi internet rivojlangan davrda yoshlarini an’anaviy dars bilan ularni qiziqtirib bo’lmaydi. Shuning uchun ham biz o’quvchilarni turli metodlarni qo’llagan holda mavzuni ularga yetkazib berishimiz mumkin.

Hozirgi kunda sinf darsliklari ham yangilanyapti va unga ijodkorlarning o’quvchi uchun notanish bo’lgan asarlari kiritilgan.

Jumladan, Rahmat Fayziyning “Hazrati inson” romanidan parcha 6-sinflarning yangi adabiyot darsliklariga kiritilgan. Ushbu asarda urush yillarida yetim qolgan bolalarni asrab olgan bir oila taqdiri yoritilgan. Asarning bosh qahramoni Mahkam aka urush yillarida o’nlab bolalarni asrab olgan Shoahmad Shomahmudovning prototipidir. Asar bo’yicha “Sen yetim emassan” kinofilmi tasvirga olingan.

Ushbu asarni 6-sinf o'quvchilariga turli metodlar bilan o'qitsak, ularda asarga qiziqish uyg'otib, urush yillari muhitiga olib kirib, odamiylik, mehr tuyg'ularini singdiramiz. Zeroki, adabiyotning vazifasi o'quvchi qalbiga mehr, odamiylik va boshqa tuyg'ularni singdirishdir.


Asarni o'qitish davomida eng avvalo asar qahramonlari bilan tanishish kerak. Buni esa "Klaster" usuli yordamida o'quvchilar bilan ko'rib chiqamiz.⁴¹

1-topshiriq. Asar qahramonlarini ushbu bulutlarga joylashtiring



Bu metod o'quvchilar asar qahramonlarini esda saqlashlari uchun ko'maklashadi. Endi esa asar zahirida mujassamlashgan tuyg'ular va bu tuyg'ular o'quvchilar nazdida nima ekanligini bilishga harakat qilamiz. Buni esa "T-jadval" metodi orqali amalga oshiramiz.⁴²

2-topshiriq. Birinchi ustunga asar qahramonlariga xos xislatlarni joylashtiring.



Bu topshiriq bilan bolalarni tuyg'ular haqida fikrini bilib olish mumkin. Asar urush yillarini aks etgan ekan, biz bu haqida bolalar fikrini bilishimiz kerak. Buning uchun esa "Suhbat" metodini qo'llaymiz.⁴³



3-topshiriq. Rasimga qarab urush yillari haqida fikringizni bildiring

⁴¹ R.Niyozmetova. Q. Husanboyeva. "Adabiyot o'qitish metodikasi". -T.: Barkamol fayz media. 2018y. -B353

⁴² R.Niyozmetova. Q. Husanboyeva. "Adabiyot o'qitish metodikasi". -T.: Barkamol fayz media. 2018y. -B353

⁴³ R.Niyozmetova. Q. Husanboyeva. "Adabiyot o'qitish metodikasi". -T.: Barkamol fayz media. 2018y. -B353

Bu ularning nutqini o‘stirishga, fikrlarini bayon qilishga ko‘maklashadi. Zamonaviy yoshlarni darsga qiziqтира olish, asar mazmunini yetkazish o‘qituvchining salohiyatiga bog‘liq. An‘anaviy dars bilan o‘quvchini fanga qiziqтира olmaymiz. Uning ruhiyatiga ta‘sir ko‘rsatib bo‘lmaydi. Mening fikrimcha o‘qituvchi har bir darsini innovatsion yondashuv asosida o‘tsa, adabiyot fanidan ko‘zlangan maqsadga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.R.Fayziy. “Hazrati inson”. -T.: G‘afur G‘ulom,1978. -B.520.
2. 6-sinf “Adabiyot”.-T.: Respublika ta‘lim markazi, 2022. -B.174-185.
- 3.R.Niyozmetova.Q.Husanboyeva.“Adabiyot o‘qitish metodikasi”.-T.: Barkamol fayz media, 2018. -B353.